

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGI:
QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR TEKSHIRUVI
INSTITUTINING RIVOJI VA ISTIQBOLLARI**

Jumayev Shohjahon Begimqul o'g'li

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi,
Bosh prokuratura Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
ilmiy tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida qonuniylilikni qaror toptirish borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Xususan, mustaqillik yillarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari institutining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, uning huquqiy va tashkiliy asoslari, bugungi kundagi ahamiyati hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari yoritiladi. Shuningdek, mazkur institutni takomillashtirish, prokuror tekshiruvlarini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, qonuniylilik va inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlash masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini yanada takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, qonun ustuvorligi, prokuratura, prokuror nazorati, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari, qonuniylilik, inson huquqlari, huquqiy islohotlar, prokuror faoliyati.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi xalqimiz hayotida nafaqat tarixiy sana, balki milliy davlatchiligimizning tiklanishi, demokratik va huquqiy davlat barpo etish yo'lida bosib o'tilgan ulkan taraqqiyot yo'lini sarhisob qilish, amalga oshirilgan islohotlar natijalariga baho berish hamda kelajak istiqbollari belgilash uchun muhim ma'naviy va siyosiy-huquqiy bosqichdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson qadri, qonun ustuvorligi, adolat va inson huquqlarini ta'minlashga asoslangan mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllandi.

Ayniqsa, qonunlarning hayotda aniq va bir xilda ijro etilishini ta'minlash, fuqarolar hamda jamiyatning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda prokuratura organlari faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari instituti alohida o'rin egallaydi. Mazkur institut mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy, ma'muriy va sud-huquq islohotlari bilan hamohang ravishda rivojlanib, qonun ustuvorligini ta'minlashning samarali huquqiy mexanizmlaridan biri sifatida shakllandi.

Mavzuning dolzarbligini ko'rsatish uchun zarur statistik ma'lumotlarning keltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Jumladan, 2025-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvargacha qadar 38 505 ta qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari o'tkazilib, unda 546 078 ta qonunbuzilishi holatlari aniqlangan. Ushbu tekshiruvlarda prokuror nazorati hujjatlaridan 48 811 ta protest, 32 249 ta taqdimnoma, 47 242 ta qaror, 24 378 ogohlantiruv qo'llanilgan va 560 852 nafar shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan. 2024-yilda 37 mingdan ortiq prokuror tekshiruvlari o'tkazilgan. 2023-yilning 12 oyi davomida esa 34 mingdan ortiq tekshiruv

o'tkazilgan bo'lib, bu 2024-yilga qaraganda 2 498 ta kamroq. Shuningdek, 2021 yilda jami 27 mingdan ortiq, 2022-yilda esa 32 mingdan ortiq tekshiruvlar o'tkazilgan¹.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlariga doir ilmiy-nazariy qarashlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, huquqshunos olim, yuridik fanlar doktori, professor ustoz B.X.Po'latov ta'kidlashicha, "Qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida o'tkaziladigan tekshiruv prokuratura organlari faoliyatining asosiy strategiyasini aks ettiradi. Hozirgi vaqtda ularning tematikasi xilma-xildir"². Shuningdek, yuridik fanlar doktori, dotsent ustoz A.B.Komilov ham ta'kidlaganidek, **"prokuror tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish tartibotini huquqiy tartibga solish borasida O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va prokuratura organlarining ichki idoraviy hujjatlarini o'rganish shundan dalolat berdiki, hali bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina, to'g'rirog'i, hali bu masalada ishlar o'zining boshlang'ich nuqtasida turibdi, desak mublag'a bo'lmaydi"**³.

Yuridik adabiyotlarni tahlil qilish orqali turli nazariyotchi va amaliyotchilarning qarashlari o'rganildi. Huquqshunos olim D.S.Belousova ta'kidlashicha, "prokuror tekshiruvlari qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini o'rnatish va qonunbuzilishlarini aniqlashning muhim instrumenti hisoblanadi.

¹Электрон манба: <https://nazorat.prokuratura.uz/reports-print/pe/prosecutor-activity?startDate=2024-01-01&endDate=2025-01-01&branchId&departmentId&structureId&fromId&fromIds>.

² Po'latov B.X. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil qilish va prokuror nazoratining namunaviy hujjatlar to'plami//Amaliy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2013. – 14-bet//URL: <https://proacademy.uz/postfiles/books/u-/tp/index.html> (murojaat vaqti:14.07.2024).

³ Komilov A.B. Prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatida huquqiy vositalarni qo'llashdagi muammolar va takomillashtirish masalalari: Yuridik fanlari bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Toshkent. Huquqni muhofaza qilish akademiyasi. 2025. 189-bet.

Prokuror tekshiruvlari “umumiy nazorat” faoliyatining majburiy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi”⁴.

Fikrimizcha, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi faqatgina qonunbuzilish holatlarini aniqlashningina muhim belgisi emas. Sababi prokuror tekshiruvi natijasida nafaqat qonunbuzilishi *aniqlanadi*, balki tegishli prokuror nazorati hujjatlari orqali uni *bartaraf etish* choralari ham ko‘riladi. Tekshiruvlarni tadqiq etishda bu ham inobatga olinishi lozim, deb hisoblaymiz.

Mavzuning ahamiyati va muhim rolini ko‘rsatishda xalqaro standartlar hamda reytinglarga ham murojaat etish zarur hisoblanadi. Dunyoda qonun ustuvorligi ta‘minlash hamda qonuniylikni mustahkamlash huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jumladan prokuratura organlari oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Ma‘lumki, har yili “World Justice Project” xalqaro tashkiloti tomonidan “Huquq ustuvorligi indeksi” tuziladi. Mazkur indeksda O‘zbekiston Respublikasi 2021-yilda 140 ta davlat orasida 85-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2025-yilda O‘zbekiston umumiy ro‘yxatda Xitoy, Belarus, Qirg‘iziston, Rossiya, Turkiya va boshqa davlatlarni ortda qoldirib, 81-o‘rinni egalladi⁵. Ushbu Indeks 8 ta indikatorni, jumladan, hokimiyat vakolatlarining cheklanganligi, korrupsiyadan xolilik, davlat institutlari faoliyatining ochiqligi (shaffofligi), asosiy huquqlarni himoya qilish, tartib va xavfsizlik, huquqni muhofaza qilish, fuqarolik va jinoiy odil sudlov kabilarni o‘z ichiga oladi. Mazkur indeksdagi “*asosiy huquqlarni*

⁴ Белоусова Д.С. Дальнейшая процессуализация прокурорской проверки: блажь или необходимость? // Научно-практический журнал Университета прокуратуры Российской Федерации. С.49. №5 (85) 2021 // https://www.agprf.org/userfiles/ufiles/ob%20akademii/vestnik/2021/Вестник_5_2021_end.pdf (мурожаат вақти: 15.04.2024).

⁵Интернет манбаси: <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global>.

himoya qilish” hamda *“huquqni muhofaza qilish*” indikatorlarini yanada yaxshilashda bevosita **qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarining** ham ahamiyati juda katta sanaladi. Chunki, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlaridan ko‘zlangan maqsad ham qonun ustuvorligini ta’minlash hamda qonuniylilikni mustahkamlashdir.

Tahlillar asosida qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini takomillashtirishga qaratilgan qonunchilikka taklifimizni ham keltirib o‘tmoqchimiz. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasida belgilangan amaldagi normalar biroz tor doirada ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni unda prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning aniq va qat’iy muddatlari aks ettirilmagan.

Vaholanki, prokuror tekshiruvlari orqali davlat organlari, tashkilotlari hamda ular mansabdor shaxslariga nisbatan intizomiy, ma’muriy, jinoiy va boshqa huquqiy ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin. Bu esa ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari muayyan darajada qonuniy tartibda cheklanishini mumkin ekanligini anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda, bunday jarayonlarni o‘tkazishning aniq va qat’iy muddatlari qonun bilan tartibga solinishi lozimligini davrning o‘zi taqozo etadi. Shu bois, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o‘tkazishning aniq va qat’iy muddatlari O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunida belgilab qo‘yilishini taklif etamiz.

Taklifni asoslash uchun ayrim xorij tajribalari keltirib o‘tilishi lozim bo‘ladi. Qozog‘iston Respublikasining 2022-yil 5-noyabrda 155-VII-son bilan qabul qilingan “Prokuratura to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni

18-moddasiga asosan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi o'ttiz ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Agar qo'shimcha materiallarni talab qilish zarur bo'lsa, shuningdek tashkilot faoliyatining qonuniylikka muvofiqligini tekshirishning katta miqdori bilan bog'liq bo'lsa, uni alohida holatlarda o'tkazish muddati o'ttiz ish kunidan oshmasligi kerak.

Turkmaniston Respublikasining 2015-yil 2-dekabrda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni⁶ 27-moddasida qonun hujjatlariga rioya etilishini tekshirish bir oygacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi. Tekshiruvni tayinlagan prokuror yuqori turuvchi prokurorning roziligi bilan uni o'tkazish muddatini uch oygacha, Turkmaniston Bosh prokurorining roziligi bilan esa olti oygacha uzaytirishi mumkin, bu haqda tekshirilayotgan tashkilot rahbariga yozma ravishda xabar beradi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o'tkazish muddatlari aniq va qat'iy belgilanmaganligining salbiy oqibatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Tekshiruvlarning cho'zilib ketishi va subyektivlik xavfi oshishi. Aniq muddat bo'lmaganda tekshiruvning qancha vaqt davom etishi tekshiruvchi prokurorning ichki qarashlariga bog'liq bo'lib qoladi. Bu esa ortiqcha byurokratik kechikishlar, ayrim hollarda esa subyektiv yondashuvlarga yo'l ochishi mumkin;

Tashkilot va mansabdor shaxslar faoliyatiga asossiz aralashuv imkoniyati. Muddat aniq, qonun darajasida belgilanmagani uchun tekshiruv

⁶ Turkmaniston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni, Internet manbasi: URL: [https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-\(novaya-redaktsiya\).](https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/25369/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-prokurature-turkmenistana-(novaya-redaktsiya).)

amalda “cheksiz davom etadigan jarayon”ga aylanib qolishi mumkin. Bu davlat organi, tashkiloti, muassasasi yoki korxonaning odatiy ish faoliyatini to‘xtatib qo‘yishi, hujjatlarni qayta-qayta talab qilish kabi keraksiz yuklamalarni keltirib chiqarishi mumkin;

Amaliyotda turlicha yondashuvlar paydo bo‘lishi. Bir hududda tekshiruv 10 kunda tugashi mumkin, boshqa hududda esa 2–3 oy davom etishi ehtimoli bor bo‘ladi. Bu esa bir xil munosabatga turlicha huquqiy yondashuv yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Prokuror nazoratining yagona amaliyoti shakllanishiga ham to‘sqinlik qilishi mumkin;

Faqat ichki hujjatlar bilan tartibga solinib ketish holatining yuzaga kelishi. Qonunda muddat bo‘lmasa, amaliyotni ichki buyruqlar va yo‘riqnomalar belgilab qo‘yadi. Bu esa shaffoflikning kamayishi, tekshiruvlar tartib-taomilining normativ emas, yo‘riqnomaviy ko‘rinish olishi kabi oqibatlarga olib kellihi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, **O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi — bu xalqimizning ozod va farovon hayot sari** bosib o‘tgan yo‘lini sarhisob qilish bilan bir qatorda, milliy davlatchilik va huquqiy tizimimizning kelajak taraqqiyot istiqbollarini belgilash uchun ham muhim tarixiy bosqichdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida qonuniylilikni qaror toptirish borasida ulkan islohotlar amalga oshirildi.

Ana shunday islohotlar jarayonida qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi instituti ham yangi mazmun va sifat kasb etdi. U faqat qonunbuzilish holatlarini aniqlash vositasi sifatida emas, balki qonunbuzilishlarning oldini olish,

fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatida qonuniylikni ta'minlashning muhim kafolati sifatida rivojlandi. Mustaqillikning eng yuksak mazmuni — erkin va adolatli jamiyatni barpo etish, uning eng mustahkam poydevori esa qonun ustuvorligini ta'minlashdir. Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari institutining izchil rivojlanishi esa ana shu ezgu maqsadga xizmat qilib, O'zbekistonning adolat, qonuniylik va inson qadri ustuvor bo'lgan taraqqiyot yo'lidagi muhim huquqiy kafolatlardan biri bo'lib qolaveradi.